



MURAKKAB QIRQIM.


Ikki va undan ortiq kesuvchi tekislik bilan hosil qilingan qirqim ***murakkab qirqim*** deyiladi. Murakkab qirqimlar pog`onali va siniq qirqimlarga bo`linadi. Kesuvchi tekisliklar o`zaro parallel joylashgan bo`lsa, pog`onali qirqim hosil bo`ladi (2.7-shakl).



Shaklda detalni kesuvchi uchala tekislik o`zaro parallel bo`lib, frontal proyeksiya tekisligi bilan jipslashtirilgan. Murakkab pog`onali qirqimlar oddiy qirqimlar singari gorizontal, frontal va profil qirqimlar bo`lishi mumkin. 2.7-shaklda frontal pog`onali qirqim tasvirlangan.


Kesuvchi tekisliklar o`zaro kesishib burchak hosil qilsa, siniq qirqim hosil bo`ladi (2.8-shakl). Bunday qirqim berilgan detalning proyeksiyasi chizilganda shartli ravishda kesuvchi tekisliklarning o`zaro kesishish chizig`i atrofida bitta tekis yuza hosil bo`lib, asosiy proyeksiya tekisliklaridan birortasiga parallel vaziyatga kelguncha aylantirib, 2.8-shaklda ko`rsatilgandek tasvirlanadi.





2.8-shakl

Siniq qirqim hamma qirqimlar kabi frontal, gorizontal va profil bo`lishi mumkin 2.8-shaklda profil siniq qirqim, 2.9-shaklda frontal siniq qirqim ko`rsatilgan.




2.9-shakl

Siniq qirqimlar boshqa ko`rinishlarga ham, masalan, ustdan ko`rinishga ham (2.10- shakl) joylashtirilishi mumkin, bunda tekisliklar aylantirilgandan so`ng gorizontal proyeksiyalar tekisligiga parallel bo`lib qoladi. Ushbu holda bu qirqim gorizontal siniq qirqim deyiladi (2-10 shakl).

chizmach

UZ



2.10-shakl